



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 12-sentabr

4/21-2/20-352-son

Respublikadagi barcha davlat oliy ta'lif muassasalarini rektorlari va filiallar direktorlariga

O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Davlat komissiyasi majlisining 2022-yil 31-avgustdagi (01-07/1-1557-son, 31.08.2022y.) 3-son qarori bayoni bilan quyidagilar tasdiqlanganligini ma'lum qilamiz.

11-bandiga muvofiq. Farzandi to'lov-kontrakt asosida o'qiydigan oilalarga yengillik yaratish va talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, istisno tariqasida, 2022/2023 o'quv yili uchun barcha bosqichdagi talabalarning bazaviy to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati miqdorlari davlat oliy ta'lif muassasalarini, jumladan, moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lif muassasalarida ham 2021/2022 o'quv yili uchun belgilangan miqdorda saqlab qolinsin;

2022/2023 o'quv yili uchun barcha davlat oliy ta'lif muassasalrida bakalavriat ta'lif yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo'yicha bitta talabani to'lov-kontrakt shaklidagi bir yillik o'qitish qiymati miqdorlari **7- ilovaga** muvofiq;

2022/2023 o'quv yili qabulida bakalavriat ta'lif yo'nalishlariga kirish imtihonlari natijalariga ko'ra to'plagan ballari tasdiqlangan to'lov-kontrakt doirasidagi qabul parametrlari chegarasiga **4,05 balldan** ortiq yetmagan, **56,7 balldan** kam bo'limgan holda, qo'shimcha ravishda o'qish istagini bildirgan abituriyentlarning birinchi o'quv yili uchun amalda belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt miqdorlariga nisbatan tabaqlashtirilgan to'lov-kontraktning tabaqlashtirilgan to'lov-kontraktning minimal miqdorlari **8- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin. Bunda:

2022/2023 o'quv yili qabulida to'plagan ballari tasdiqlangan qabul parametrlari chegarasiga yetmagan, lekin tabaqlashtirilgan to'lov-kontrakt asosida tahsil olish istagini bildirgan barcha abituriyentlarga, istisno tariqasida, 2022-yil **5-sentabrdan** boshlab shartnomalar rasmiylashtirishga, shuningdek, **bir yillik o'qitish qiymatining 50 foizini to'laganlarni** talabalar safiga qabul qilishga ruxsat berilsin;

tabaqlashtirilgan to'lov-kontraktning minimal miqdorlarini hisoblashda mazkur bayon qaroriga **7- ilova** bilan tasdiqlangan bakalavriat ta'lif yo'nalishlari bo'yicha bitta talabani to'lov-kontrakt shaklida stipendiyasiz bazaviy to'lov-kontrakt bo'yicha o'qitish qiymati qo'llaniladi hamda abituriyentlarga, istisno tariqasida, 2022/2023

o‘quv yili uchun belgilangan tabaqalashtirilgan to‘lov-kontraktning minimal miqdoriga 10 foizli chegirma beriladi.

12-bandiga muvofiq. 2022/2023 o‘quv yili qabul uchun tasdiqlangan Respublika oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni hamda baholash mezonlari o‘zgarganligi sababli, abituriyentlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, istisno tariqasida, to‘lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etish chizig‘i chegarasigacha yetarli ball to‘play olmagan abituriyentlarga tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt miqdorini amalda belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi tartibda amalga oshirishga rozilik berilsin.

To‘plangan ballari tasdiqlangan to‘lov-kontrakt bo‘yicha qabul parametrlari chegarasiga:

1,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun – bazaviy to‘lov-kontrakt miqdorining 1,5 barobari;

1,06 balldan 2,05 ballgacha yetmaganlar uchun – bazaviy to‘lov-kontrakt miqdorining 2,0 barobari;

2,06 balldan 3,05 ballgacha yetmaganlar uchun – bazaviy to‘lov-kontrakt miqdorining 2,5 barobari;

3,06 balldan 4,05 ballgacha yetmaganlar uchun – bazaviy to‘lov-kontrakt miqdorining 3,0 barobari.

Bunda, ushbu toifadagi abituriyentlar uchun to‘lov-kontraktning minimal miqdorlarini hisoblashda mazkur bayon qaroriga 7-ilova bilan tasdiqlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bitta talabani to‘lov-kontrakt shaklida stipendiyasiz bazaviy to‘lov-kontrakt bo‘yicha o‘qitish qiymati qo‘llaniladi hamda abituriyentlarga, istisno tariqasida, 2022/2023 o‘quv yili uchun belgilangan tabaqalashtirilgan to‘lov-kontraktning minimal miqdoriga 10 foizli chegirma beriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Davlat komissiyasi majlisining yuqorida keltirilgan qarorini har bir oliy ta’lim muassasasi mavjud bakalavriat ta’lim yo‘nalishlaridan kelib chiqib, to‘lov miqdorlarini shakllantirishini, o‘zlarining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida hamda hududlaridagi maxsus joylarda e’lon qilinishi, abituriyentlar, talabalar va ularning ota-onalariga mazkur qarorning mazmun mohiyatini tushuntirish, ayniqsa ular bilan ishlayotgan mutasaddi rahbar va xodimlarga alohida tushuntirish va yetkazilishini ta’minlashga shaxsan oliy ta’lim muassasasi rektori (filal direktori) mas’ul ekanligini eslatib o‘tamiz.

Vazir o‘rinbosari



S.Buzrukxonov